




2023- yil yanvar-mart oylarida ANDIJON VILOYATIDA xizmatlar sohasining rivojlanishi






2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.





2023- yil yanvar-mart


Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi - bu, korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 688,0 mlrd so'mga yetdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,6 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-mart oylarida)





ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-mart oylarida) | Hajmi, mlrd so'm | 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da |
|--|------------------|---|
| Xizmatlar - jami | 4 688,0 | 105,6 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 241,9 | 129,6 |
| Moliyaviy xizmatlar | 1033,6 | 104,8 |
| Transport xizmatlari | 902,3 | 102,5 |
| <i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i> | 874,7 | 102,6 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 86,7 | 103,5 |
| Savdo xizmatlari | 1425,2 | 103,7 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 116,3 | 100,8 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 216,8 | 127,1 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 73,4 | 105,9 |
| Ijara xizmatlari | 103,5 | 100,3 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 104,0 | 100,6 |
| Shaxsiy xizmatlar | 230,9 | 101,1 |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 33,1 | 95,4 |
| Boshqa xizmatlar | 120,5 | 107,4 |

4

Andijon viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ulush

Nisbatan past ulush





2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2023- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **30,4 %** ni tashkil etdi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida eng past o'sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **0,7 %** ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmda 30,6 % ni tashkil etdi. 2022- yilning shu davrida Me'morchilik sohasidagi xizmatlarining ulushi ham eng kichik bo'lgan - 0,8 %.

2023- yil yanvar-mart oylarida yuqori o'sish boshqa xizmatlar (**107,4 %**), aloqa va ahborotlashtirish xizmatlari (**129,6 %**), moliyaviy xizmatlar (**104,8 %**) qayd etildi.


Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-mart oylarida Moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi (111,5 %).



2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da





2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo – bu, tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogo bo'linadi.

2023- yil yanvar-mart oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **30,4 %** ni tashkil etdi, bu esa **1 425,2** mlrd so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-mart oyida ularning hajmi **1 712,6** mlrd so'mga yoki umumiy hajmining **30,6 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2022- yil yanvar-mart

**Xizmatlar hajmi
1 217,6 mlrd so'm**

**O'sish sur'ati
112,9 %**

**Ulushi
30,6 %**



2023- yil yanvar-mart

**Xizmatlar hajmi
1 425,2 mlrd so'm**

**O'sish sur'ati
103,7 %**

**Ulushi
30,4 %**



2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **82,6 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2023- yil yanvar-mart oylarida)

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

8,3 %



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

82,7 %

9,0 %





2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobi bo'yicha olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2022- yil yanvar-mart oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi 1 033,6 mlrd so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-mart oylarida ularning hajmi 884,9 mlrd so'mga teng bo'lgan.

Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **22,0** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **22,2** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi **59,7** mlrd so'mga o'sgan

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 104,8 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022 - yil yanvar-mart oylarida ularning o'sish sur'ati 111,5 % ga yetgan.



2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlarda moliyaviy xizmatlarning ulushi **87,3 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **3,2 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi *(2023- yil yanvar-mart oylarida)*





2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-mart oylarida)

2022- yil yanvar-mart

2023- yil yanvar-mart

182,1
mlrd so'm

102,5 %

4,6 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi
ulushi

Hajmning o'sishi

60,0 mlrd so'mga

241,9
mlrd so'm

129,6 %

5,2 %






2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshi aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **97,2 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2023- y. yanvar



 **Telekommunikatsiya xizmatlari**

 **Noshirlik xizmatlari**

 **Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari**

 **Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**



2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

172,2
mlrd so'm

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi

216,8
mlrd so'm

2022- y.
yanvar-
mart



2023- yil
yanvar-
mart

2023- yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **216,8** mlrd so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **4,6** % ni tashkil etdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **127,1** % ni tashkil etdi.

99,0 %

O'sish sur'atlari, % da

127,1 %

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-mart oylarida xizmatlar hajmi **172,2** mlrd so'mga teng bo'lgan. 2021- yilga nisbatan o'sish darajasi **99,0** % da qayd etilgan.



2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,
mlrd so'm

67,8

86,7

2022- yil
yanvar-mart

2023- yil
yanvar-mart



O'sish
sur'ati, % da

123,4

103,5

2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **18,9** mlrd so'mga ortdi.



2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2023- yil yanvar-mart

90,4 %

9,6 %



8,1 %

91,9 %

2022- yil yanvar-mart



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar



Yashash bo'yicha xizmatlar

2023- yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **90,4 %** bilan ustunlik qildi.



2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi
 – bu, sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2022- yil yanvar-mart

2023- yil yanvar-mart

63,6 mlrd so'm

Xizmatlar hajmi

73,4 mlrd so'm

108,9 %

O'sish sur'ati

105,9 %

1,6 %

Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi

1,6 %





2023- yil yanvar-mart


Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da

(2023- yil yanvar-mart oyida)



2023- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Andijon shahriga tegishli – **38,8 %** (2022- yilda **38,3 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ulushlari Ulug'nor tumanida **1,6 %** (2021- yilda **1,6 %**) qayd etildi.



2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

| Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar (2023- yil yanvar-mart) | Hajmi, mlrd so'm | O'sish sur'ati, % da | |
|--|------------------|----------------------|--------------|
| | | 2023- y. | 2022- y. |
| <i>Andijon viloyati</i> | 4 688,0 | 105,6 | 106,9 |
| <i>Shaharlar:</i> | | | |
| <i>Andijon sh</i> | 1 819,3 | 107,1 | 107,6 |
| <i>Xonobod sh</i> | 101,5 | 103,4 | 104,5 |
| <i>Tumanlar:</i> | | | |
| <i>Oltinko'l</i> | 194,2 | 105,5 | 106,0 |
| <i>Andijon</i> | 277,3 | 104,6 | 107,0 |
| <i>Baliqchi</i> | 243,0 | 104,9 | 106,8 |
| <i>Bo'ston</i> | 83,6 | 103,7 | 104,5 |
| <i>Buloqboshi</i> | 154,1 | 105,6 | 106,0 |
| <i>Jalaquduq</i> | 204,8 | 105,8 | 106,2 |
| <i>Izboskan</i> | 217,1 | 103,6 | 105,0 |
| <i>Ulug'or</i> | 73,1 | 106,1 | 104,3 |
| <i>Qo'rg'ontepa</i> | 231,4 | 105,3 | 107,1 |
| <i>Asaka</i> | 308,1 | 103,2 | 107,4 |
| <i>Marhamat</i> | 182,5 | 103,3 | 105,2 |
| <i>Shahrixon</i> | 244,7 | 104,7 | 107,2 |
| <i>Paxtaobod</i> | 170,1 | 105,9 | 105,1 |
| <i>Xo'jaobod</i> | 183,0 | 105,0 | 104,7 |

**) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*



2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

**1 407,6
ming so'm**

**186,5 ming
so'mga**

2023- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga **1 407,6** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **103,4 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash

uchun:

2022- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 221,1** ming so'mni tashkil etgan.

103,4 %

O'sish sur'ati



2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

21 145 birlik

2022- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

-4 591 birlikga

2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

82,2 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi

65,1 %




2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **65,1 %**, sanoat **20,3 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **7,5 %** ga yetdi. Qurilish sohasi **7,1 %** ga to'g'ri keladi.

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **61,0 %**, sanoat **22,6 %**, qurilish **7,8 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **8,6 %** ni tashkil etgan.




2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi. Ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.


Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



65,2 %

2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **65,2 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2022- y.

79,2 %

2023- y.

75,8 %

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **75,8 %** ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.

Tel.: 74 228-30-83